

*Solixo‘jayeva Havasxon Zokirjanovna*  
*Namangan davlat universiteti dotsenti*  
*Email: [solixodjayevaxavasxon@gmail.com](mailto:solixodjayevaxavasxon@gmail.com)*

*Xurinisa Xudoyberdiyeva,*  
*Namangan davlat universiteti doktoranti*  
*Email: [xudoyberdiyevaxurininsa@gmail.com](mailto:xudoyberdiyevaxurininsa@gmail.com)*

## **LINGVOSTILISTIKANING NAZARIY MASALALARI**

**Annotatsiya:** Maqolada lingvostilistika sohasining paydo bo‘lishi, uning tadqiqi, tarixiy manbalari, predmeti (fonetik, leksik, morfologik, sintaktik birliklar), maqsad-vazifalari, soha oldida turgan nazariy muammo va masalalar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** lingvistika, stilistika, lingvostilistika, morfologik stilistika, fonetik stilistika, leksik stilistika.

*Solikhadjayeva Havaskhan Zakirjanovna*  
*Associate Professor of Namangan State*  
*University*

*Email: [solikhodjayevaxavasxon@gmail.com](mailto:solikhodjayevaxavasxon@gmail.com)*

*Khurinisa Khudoyberdiyeva,*  
*Doctoral student of Namangan State University*  
*Email: [khudoyberdiyevakhurininsa@gmail.com](mailto:khudoyberdiyevakhurininsa@gmail.com)*

## **THEORETICAL ISSUES OF LINGUISTICS**

**Abstract:** The state uses the characteristics of the field of linguistics, its research, historical sources, subject (phonetic, lexical, morphological, syntactic units), goals and objectives, theoretical problems and problems facing this field.

**Keywords:** linguistics, stylistics, linguistic stylistics, morphological stylistics, phonetic stylistics, lexical stylistics.

*Солихаджаева Хавасхан Закирджановна.*  
*Доцент Наманганского государственного*  
*университета*

*Электронная почта: [solikhodjaevaxavasxon@gmail.com](mailto:solikhodjaevaxavasxon@gmail.com)*

*Хуриниса Худойбердыева,*  
*Докторант Наманганского государственного университета*  
*Электронная почта: [худойбердыевахурининса@gmail.com](mailto:худойбердыевахурининса@gmail.com)*

## **ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ ЛИНГВИСТИКИ**

**Аннотация:** В статье описано возникновение области языкознания, ее исследование, исторические источники, предмет (фонетические, лексические, морфологические, синтаксические единицы), цели и задачи, теоретические проблемы и проблемы, стоящие перед этой областью.

**Ключевые слова:** языкознание, стилистика, лингвостилистика, морфологическая стилистика, фонетическая стилистика, лексическая стилистика.

## KIRISH

Lingvostilistika zamonaviy tilshunoslikning ham nazariy, ham amaliy sohalaridan biri sifatida turli uslublar, til birliklarining ham paradigmatic (til tizimida), ham syntagmatic (muloqotning turli sohalarida qo'llanishi nuqtai nazaridan) ekspressiv, emotsional xususiyatlarini o'rganadi.

Jahon tilshunosligida lingvostilistika sohasi yuzasidan alohida tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, bu boradagi tadqiqotlarga nazar tashlansa, mazkur sohaning rivojlanishi shveytsariyalik tilshunos Charlz Ballining umumiy stilistika, xususiy stilistika, individual stilistika yuzasidan taklif qilgan va ishlab chiqilgan identifikatsiya usuli, hamda rus tilshunosi V.V.Vinogradovning til stilistikasi, nutq stilistikasi va badiiy adabiyot stilistikasiga bag'ishlangan konsepsiyasi bilan bog'liqligini ko'rish mumkin. Shuning uchun bo'lsa kerak, soha mutaxassislari lingvostilistikani *funksional stilistika*, *til stilistikasi* sifatida ham talqin etadilar. Boisi, lingvostilistikada eng asosiy e'tibor lingvistik birliklarning stilistik funksiyasini ochib berishga qaratilgan bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, biz ham lingvostilistika sohasini lingvistika va stilistikaning muayyan qonun-qoidalari asosida yuzaga kelgan, til faoliyatining barcha tomonlarini qamrab oluvchi mushtarak va farqli tomonlariga ega bo'lgan mustaqil soha sifatida talqin etishni ma'qul bildik.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Lingvostilistika sohasi XX asr 20-30-yillarida alohida fan sifatida shakllana boshlagan va bugungi kunga qadar jahon tilshunosligida V.Gumboldt, I.A.Boduen de Kurtene, F.Sossyur, G.O.Vinokur, A.P.Yakubinskiy, Y.Gort, V.V.Vinogradov, N.Y.Shvedova[1], o'zbek tilshunosligida H.Do'smatov, S.Karimov, N.Ro'ziqulova, S.Xudoyarova kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolaning metodologik asosini falsafaning sabab-oqibat, umumiylik-xususiylik kategoriyalari, zamonaviy tilshunoslikning badiiy-estetik merosni ilmiy, stilistik baholashga oid qarashlar tashkil etadi.

Ishda, asosan, tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, uslubiy tahlil metodlaridan unumli foydalanildi.

## TAHLILLAR VA NATIJALAR

Lingvostilistika XX asr o'rtalarida shakllangan murakkab ilmiy tilshunoslik sohalaridan biri bo'lib, dastlab zamonaviy ma'noda shveytsariyalik tilshunos Charlz Balli tomonidan 1909-yil "Traite de stilistique française (Fransuz stilistikasi)" asarida e'tibor qaratiladi. Olim o'zigacha yaratilgan uslublarga tegishli mavjud me'yoriy yondashuvlarni barchasini rad etib, lingvostilistika sohasini tilshunoslikning turli xil muloqot sharoitlarida fikr va hissiyotlarni ifodalash uchun turli til elementlarini tanlash va ulardan foydalanish tamoyillari va ta'sirini o'rganadigan sohasi sifatida e'tirof etgan holda – "barcha yoki ko'plab tillarga tegishli nutq faoliyatining umumiy stilistik muammolarini o'rganadigan *umumiy stilistika*, muayyan milliy tilning stilistik tuzilishini o'rganuvchi *xususiy stilistika*, alohida shaxslar nutqining ekspressiv xususiyatlarini hisobga oladigan *individual stilistika*[2] kabi tasnifiy guruhlariga ajratadi. Fanning predmeti sifatida esa til va nutqdagi barcha emotsional-ekspressivlikni ifodalovchi birliklarni kiritish lozimligini ta'kidlab, lingvistik stilistikani tor ma'noda funksional stilistika deb tushunish kerakligini ko'rsatadi.

Rus tilshunosligida lingvostilistikaning alohida soha sifatida shakllanishi akademik V.V.Vinogradov nomi bilan bog'liq bo'lib, u stilistika bahsida bir-biri bilan aloqador, lekin vazifalari jihatdan farqlanadigan – "*struktural stilistika, nutq stilistikasi, badiiy adabiyot stilistikasi*"[3] kabi tekshirish aspektlari zarurligini ta'kidlaydi.

Rus tilshunosi N.Kupina lingvostilistikani quyidagicha ta'riflaydi: "Lingvistik stilistika maxsus murakkab ilmiy tilshunoslik bo'lib, u tilning ekspressiv vositalari va ijtimoiy faoliyatning turli sohaları va muloqot holatlarida tilning faoliyat (foydalanish) qonuniyatlarini o'rganadi". O.S.Axmanova esa lingvistik stilistika tilning ekspressiv imkoniyatlarini o'rganadigan tilshunoslik sohasi ekanligini ta'kidlab o'tadi.

O'zbek tilshunosligida – Hikmatilla Do'smatovning "*Askiya matni lingvostilistikasi*" (*qo'llanma*), S.Karimovning "*Zulfiya asarlari lingvostilistikasi*" (*monografiya*), N.Ro'ziqulovning "*Farida Afro'z she'riyati lingvostilistikasi*" (*maqola*), Safura Xudoyarovaning "*Frazeologik va paremiologik birliklar semantikasida tarixiy voqealar ifodalanishining lingvostilistik xususiyatlari*" kabi lingvostilistikaga bag'ishlangan asarlari maydonga kelgan bo'lsa-da, lingvostilistikaning nazariy asoslari, maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti kabi masalalarga qaratilgan maxsus monografik tadqiqot ishlari mavjud emas. Shunga

ko‘ra, lingvostilistika sohasidagi bir qator masalalar bahstlab va yetarli ilmiy asosini topmagan.

Biz yuqoridagi fikrlar va nazariyalarga asoslanib, lingvostilistikani – til birliklarining nutqda qo‘llanilishi, ularning ichki mohiyati, tasviriy vositalarning uslubiy xoslanganlik darajasi, tamoyillarini o‘rganadigan tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etishni lozim topdik.

Darhaqiqat, lingvostilistikaning predmeti yuzasidan gap ketganda aniq bir izoh va ta’rifni uchratmaysiz. Boisi, yuqorida takidlanganidek, lingvostilistika ko‘p qirrali va o‘ziga xos murakkab sohalardan biridir. Ana shundan kelib chiqib, biz lingvostilistikaning *predmeti* sifatida – nutqimizda qo‘llanadigan barcha til birliklari (fonetik, leksik, morfologik, sintaktik birliklar) va nutq uslublarini qabul qildik. Chunki, lingvostilistikaning – funksional stilistika, leksik stilistika, morfologik stilistika, sintaktik stilistika [4] kabi turlari mavjud bo‘lib, ularda nutq tovushlarining, so‘zlarning, morfemalarning (qo‘shimchalar), gaplarning bir-biriga bog‘lanishi orqali ularning uslubiy-ekspressiv imkoniyatlari, tilning ta’sirchanligini belgilovchi vositalarning xususiyatlari o‘rganiladi.

## **XULOSA**

Xullas, lingvostilistik tadqiqot tilshunoslikning leksikologiya, grammatika, fonetika, semasiologiya, frazeologiya va shu kabi ko‘plab sohalari rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Boisi, ma’lum bir matnning lingvostilistik tadqiqi orqali ko‘plab til birliklarining leksik, semantik, stilistik xususiyatlari ochib beriladi. Jumladan, shoir va yozuvchilarimiz asarlarini lingvostilistik tadqiq etish orqali esa ijodkorlarning lingvopoetik mahoratini lingvostilistik qirralarda ko‘rish imkoniyati paydo bo‘ladi. Yani, o‘ziga xos stilistikasi aniqlanadi. Bu esa shakllanish bosqichida turgan lingvostilistika sohasini rivojlanishida manba hamda material vazifasini bajaradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Лехцалу У. Лив Г. Матт О. Введение в английскую стилистику. – 1973, 151 с
2. Krilova O.A. Rus tilining funksional stilistikasi asoslari. – M, 1979.
3. Sultonsaidova S. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent, 2009.
4. Do‘smatov H.X. Uslubshunoslik asoslari. – Farg‘ona, 2022. – 68 b.
5. Barannikova P.I. Til haqida asosiy ma’lumotlar. – M., 1982.
6. Abdullayev A. O‘zbek tilida ekspressivlik ifodalashning stilistik usuli. – Toshkent: Fan, 1983.
7. Арнольд И.В. Стилистика. Современный английский: Учебное пособие. – Москва: Флинта, Наука, 2002. – 384 с.

8.Лехцалу У. Лив Г. Матт О. Введение в английскую стилистику. 1973,  
–151 с.

9.Mahkamov N.Tilshunoslik terminlarining izohli lug`ati. – Toshkent,2013.  
–104 b.

10. WWW.Kitobxon.com.

11.WWW.ziyouz.com.